



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZRILIĞI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLİY UNIVERSİTETİ
TALABA VA O'QUVCHILARNING İJTIMOİY
FAOULLIGINI OSHIRISH MARKAZI
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI VAZİRLAR MAHKAMASI HUZURİDAGI
TEXNIK JİHATDAN TARTIBGA SOLİSH AGENTLİĞİ
TOSHKENT SHAHAR YOSHLAR ISHLARI BOSHQARMASI
O'ZBEKİSTON YOSHLAR İTTİFOQI TOSHKENT SHAHAR KENGASHI
"MA'RİFAT" TARG'İBOTÇILAR JAMIYATI
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI FANLAR AKADEMİYASI HUZURİDAGI
O'ZBEKİSTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODİK MARKAZ

"SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI"

MAVZUSIDAGI III RESPUBLİKA İLMİY-AMALİY
ANJUMANI TO'PLAMI

FILOLOGIYA FANLARI



Sifatli ta'lism -
taraqqiyot poydevori

2025 - YIL 15 - MAY

"SIFATLI TA'LIM - TARAQQIYOT POYDEVORI" MAVZUSIDAGI III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO`PLAMI // TOSHKENT, 2025-YIL 15-MAY.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2019-YIL 30-AVGUSTDAGI "YOSHLARNI ILM-FAN SOHASIGA JALB ETISH VA ULARNING TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI PQ-4433-SON QARORI HAMDA OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGINING 2024-YIL 27-DEKABRDAGI "2025-YIL XALQARO VA RESPUBLIKA MIQYOSIDA O'TKAZILADIGAN ILMIY VA ILMIY-TEXNIK TADBIRLAR REJALARINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA"GI 490-SON BUYRUG'I 2-ILOVA 95-BANDIDA BELGILANGAN VAZIFALAR IJROSINI TA'MINLASH HAMDA **2025-YIL "ATROF MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI"** MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI, MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURDAGI TALABA VA O'QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MARKAZI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZILAR MAHKAMASI HUZURIDAGI TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI, YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI, O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI TOSHKENT SHAHAR HUDUDIY KENGASHI, "MA'RIFAT" TARG'IBOTCHILAR JAMIYATI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI O'ZBEKİSTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ HAMKORLIGIDA **2025-YIL 15-MAY** KUNI "**SIFATLI TA'LIM - TARAQQIYOT POYDEVORI**" MAVZUSIDAGI III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI O'TKAZILDI,

TASHKILIY QO'MITA:

- | | |
|---------------------|---|
| JALOLIDDIN YUSUBOV | - FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSC), DOTSENT; |
| ULUG'BEK TO'XTAYEV | - O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XODIMI; |
| SHERZOD SHARIPOV | - O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TALABASI; |
| SEVINCH MUSTAFOYEVA | - O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TALABASI; |
| HUSNIDA BO'RIYEVA | - O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI TALABASI. |

MAQOLALARING TO'G'RI VA ANIQLIGIGA MUALLIFLAR MAS'ULDIR.

© SIFATLI TA'LIM - TARAQQIYOT POYDEVORI

тушуна олиш эса ўқувчиларга мустақил равища муаммони ифодалай олиш имкониятини беради.

Муаммоли таълим технологияларидан она тили фанини ўқитища фойдаланилганда ўқувчиларнинг ақлий фаолиятдаги асосий жараён фикрлаш жараёни бўлиб, фикрлашнинг сифати унинг мантиқийлиги, мустақиллиги, ижодийлиги, илмийлиги, асослилиги, узвийлиги, тежамлилиги, мақсадлилиги, тезлиги, таҳлилийлиги, қиёсийлиги, умумлаштирилганлиги, хусусийлаштирилганлиги, кенглиги, чуқурлиги, ишонарлилиги, реаллиги, ҳаққонийлиги даражаси билан белгиланиши исботланади.

Демак, она тили фанини ўқитища муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш натижасида ўқувчиларга шахс сифатида фанинг мавзусидан келиб чиқсан турли муаммоли масала ёки вазиятларнинг ечимини тўғри топишларига, уларда муаммони ечишнинг баъзи усуллари билан таништириш ва муаммони ечишга мос услубларни тўғри танлашга имкон беради деб баҳоласак бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мельникова Е.Л. Проблемный урок, или Как открывать знания с учениками: Пособие для учителя. – М., 2002. – 168 с.
2. Советов Б.Я., Яковлев С.А. Моделирование систем. — М.: Высш. шк., 2001.
3. Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. Инновацион таълим технологиялари – Тошкент: 2015.
4. Зиёмуҳаммедов Б., // М.Тожиевнинг умумий таҳрири остида. «Таълим технологиялари» ўқув предмети битта мавзуси назарий ва амалий машғулотларнинг ўзбек модели асосида тузилган лойиҳалари, //методик қўлланма. – т.: 2012. – 60 б.;

TURK TILIDA GIDRONIMLARNING MORFOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Tashaliyeva Sarvara

*TDSHU, Turkshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi,
O'zJOKU,Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi*

Asqarbekova Soliha Sherzodbek qizi

*TDSHU, filologiya va tillarni o'qitish (sharq
tillari boyicha) yonalishi turkshunoslik oliy maktabi 2-kurs talabasi*

Onomatika-, joylar uchun beriladigan nomlarni o'rganuvchi nomshunoslik fanidir. Onomastika - yunoncha "onomastike" so'zidan olingan olingan bo'lib, nomlash, "nom qo'yish san'ati" degan ma'nolarni anglatadi. Onomastikaning

maqsadi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash, ularni tadqiq qilishdir. Onomastika sohasi o'tgan asming 60-70-yillarida eksperemantal fonetika, fonologiya, frazeologiya, stilistika, sotsiolingvistika sohalari qatorida vujudga kelgan va tez orada tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Qator ilmiy risolalar, monografiyalar, izohli lug'atlar, dissertatsiyalar bu soha rivojini ta'minladi.¹⁷⁷ Hozirgi vaqtida bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi:

- 1) ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi;
- 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.¹⁷⁸

Topominika- bu geografik joy nomlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishini o'rganuvchi fandir. Olamda eng ulkan predmetlardan tortib ko'zga ko'rinas zarrachalarning ham o'z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo'lish mumkin emas, chunki nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir. Tushunchalarni farqlash joy nomlariga ham bevosita taalluqli. Har qanday joyning nomi, uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bog'liq so'zlar guruhi mavjud bo'ladi. Joy nomlarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan birlik-toponimdir. Toponim yunoncha so'z bo'lib, topos - joy, onoma - nom. Demak, toponim -joy nomi¹⁷⁹

Turkiya- geografik joylashuvi bo'yicha janubi g'arbiy, qisman janubi-sharqi Osiyoda joylashgan, 81 viloyatdan iborat mamlakatdir. Shuningdek, geografik joylashuvi bo'yicha 3 tomonidan dengizlar (Egey dengizi, Qora dengiz, O'rta yer dengizi) bilan o'ralgan, xususan, Mazkur ishimizda shu geografik hududning gidronimlarini tasniflab, o'rganamiz.

Gidronim so'zlar atoqli so'zlar hisoblanadi va suv inshootlari nomlari uchun ishlatalidi. Gidronim atamasi fanda (yunoncha "gidro"-suv, "nom"- nom) degan ma'noni anglatib, suvga bog'liq bo'lgan , okean, dengiz, irmoq, ko'l, va boshqa suv havzalarining nomlaridir. Topominikaga oid manbalarda gidronimlar turlicha yuritiladi. S.Qorayevga ko'ra, toponimlar daryo, ko'l dengiz, soy,jilg'a, kanal, qo'tiq, bo'g'oz, sharshara nomlari hisoblanadi. ¹⁸⁰

Gidronimlar tadqiqi bilan shug'ullangan tilshunos olim N.Ulugov gidronimlar tushunchasi tilshunoslik fani nuqtai nazaridan keng qamrovga ega ekanini ta'kidlaydi va o'zbek tilining toponimik sathida alohida semantik guruhni

- gidronimlarni, ya'ni gidronimiyanı tashkil etadigan quyidagi suv obyekti va suv inshooti nomlarini keltirib o'tadi: ariq nomlari; band, to'g'on, damba nomlari; botqoq nomlar; buloq, chashma nomlari; gidrouzel nomlari; GES nomlari; daryo nomlari; dengiz nomlari; yop nomlari; jilg'a nomlari; zakan, zovur, zakash nomlari; irmoq; kanal nomlari; kechuv, kechik nomlari: kollektor

¹⁷⁷ Mamataliyeva. R. 'Onomastik sathda gidronimlar o'rni' Science and Innovation International scientific journal.

№ 2, 2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/onomastik-sathda-gidronimlarning-orni/viewer>.

¹⁷⁸ Бегматов Э, Улуков Н. Узбек ономастикаси терминларининг изохли лугати. Наманган, 2006.

¹⁷⁹ Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тақдири ф. ф. буйича (PhD) диссер-Бухоро. 2021.

¹⁸⁰ Qorayev. S. Toponimika-joy nomlari haqidagi fan. Toshkent: Fan 1989.

nomlari; koriz nomlari; ko'1 nomlari; ko'prik nomlari; muzlik nomlari; nasos stansiyasi nomlari; oydin nomlari; olish nomlari; orol nomlari; parom nomlari; sardoba nomlari; selxona nomlari; soy nomlari; solma, yorish nomlari; soga nomlari; suv omborlarining nomlari; tashlama, kanda nomlari; chungul nomlari; sharshara nomlari; goq nomlari; quduq// quyi nomlari; hovuz nomlari.¹⁸¹

Gidronimlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan ba'zi gidronimlar sodda , eshitilganda tushunarli, ma'nosini anglash oson bo'ladi. Shuningdek, ba'zi gidronimlar nisbatan murakkabroq bo'lib, aynan nima uchun bu nom bilan atalginini bilish qiyin bo'ladi. Misol uchun, Turkiya hududi gidronimlaridan Yesilirmak (Yashilirmoq), Kara deniz (Qora dengiz) kabi atoqli nomlar eshitilganda , ortiqcha izlanishni talab qilmaydi. Chunki nomi sodda va to'g'ridan to'g'ri ma'noni ifodalaydi. Ba'zi shu hudud gidronimlari Seyhan(Seyhan), Ceyhan(Jeyhan) kabi nomlarning ma'nolarida birmuncha noaniqliqliklar bo'lishi mumkin.

Turkiya hududigi gidronimlarining onomastik-morfologik, leksik-sematik jihatdan tasniflab ko'ramiz, shuningdek, gidronimlarni sodda yoki qo'shma gidronimlar shaklida o'rganish mumkin.

Sodda gidronimlar. Yuqorida aytib o'tganimizdek, sodda gidronimlar bir o'zakdan iborat bo'lgan so'zlar, ammo qo'shimcha indikatorsiz ham aholining bu so'zlarni ortiqcha tasnifsiz tushunib ketadigan gidronimlarini misol qilib keltira olamiz, Fırat (Furot), Dicle (Dajla), Tuz (Tuz) kabi ko'l nomlari bunga ,misol bo'lishi mumkin.

Qo'shma gidronimlar. Ikki yoki ortiq o'zakdan tashkil topgan gidronimlar qo'shma deyiladi. Hamda ularda indikatorlar bo'lishini hisobga olib bir qancha guruhlarga bo'ib tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi.

1) Deniz (dengiz) indikatori. Akdeniz (O'rta yer dengizi, Egey deniz (Egey dengizi), Marmara deniz (Marmar dengizi), Kara dengiz (Qora dengizi) kabilar.

2) Göl (ko'l) indikatori. Acigo'l (Achchiq ko'l), Kilimli Göl, Aynali Göl, Sat Gölü, Karagöl kabilar;

3) Irmak (Irmoq) indikatori. Yesilirmak (Yashilirmoq), Kızılırmak (Qizilirmoq) kabilar;

4) Su (suv) indikatori. Göksu, Susurluk kabilar;

5) Çay (soy). Bakırçay, Köprüçay kabilar;

Keltirib o'tilgan indikatorlar, xususan, deniz(dengiz), göl(ko'l), ırmak(irmoq), su(suv) kabilar aynan gidronimlarni aniqlashda ishlataligan gidronim aniqlagichlar deb aytish mumkindir.

Mazkur hududning ba'zi gidronimlarini birikmali ya'ni qo'shma so'z shalkida yoki qo'shimchalar qo'shilishidan yasalganligini ko'rib chiqamiz.

1) Akdeniz, Karadeniz, Yesilirmak, Kızılırmak, kabi birikmali gidronimlarga rang nomi va gidronim indikator , xususan, deniz , ırmak kabi so'zlar qo'shilishidan yasalgan;

¹⁸¹ Улуков Н. Узбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқики. - Тошкент: Фан. 2008 .

2) Aktaş (Oqtosh) kabi nomad rang nomi va predmet,narsa nomi qo'shilishidan yasalgan.

3) Akşehir (Oqshahar) nomida rang va joyni bildiruvchi so'z qo'shilasidann yasalgan.

Xususan, ba'zi gidronimlar hajmni, shaklini bildirgan so'zlar bilan ham kelishi mumkin.

1) Büyük (katta). Büyük Menderes kabilar;

2) Küçük (kichik) . Küçük Menderes kabilar

Qo'shimchalar orqali ham gidronimlar yasaganligini misollar orqali bilishimiz mumkin.

1)-li, -lı qo'shimchasi bilan yasalangan gidronimlar: Kilimli Göl, Aynalı Göl, Elmali kabilar;

Turkiya hududi gidronimlarning ba'zilarinig etimologiyasi (kelib chiqishi), va leksik ma'nosini tahlil qilib ko'ramiz.

Kara deniz(Qora dengiz) gidronimi. Kara deniz qo'shma gidronim, ikki so'zdan biri kara(qora) rangni hamda deniz (dengiz) gidronim indikator vazifasida kelmoqda. "Kara deniz" zamonaviy nomi Markaziy Osiyodan kelgan ko'chmanchi turklar tomonidan "qora dengiz" deb nomlangan.¹⁸² Farazlardan biri bir qator Osiyo mamlakatlari qabul qilgan "rang" belgisi bilan bog'liq bo'lib, u yerda "qora" shimolni, Qora dengizni-Shimoliy dengizni ko'rsatdi.

Ismning kelib chiqishi yana bir gipoteza, Vodorod sulfidining ta'siri tufayli uzoq vaqt davomida 150m dan chuqurroq dengiz suviga tushrilganilgan metal buyumlar,(masalan,langar) qora qoplama bilan qoplanganligini asoslaydi¹⁸³

Shuningdek aytib o'tish kerakki, rang nomlari bilan atalgan yoki rang nomlari qo'shilmasi bilan yasalgan gidronimlar bir muayyan ma'nomi anglatmasligi ham mumkin. Chunki bu rang nomlari turli xaqlar tomonidan turlicha ma'nomi anglatganligi uchun ularga bir ma'noni bera olmaymiz.. Masalan **ak** (oq), **kara**(qora) kabi ranglani bildiruvchi so'zlarda biri shimolni, biri janubni anglatadi deyiladi. Lekin bu so'z;lar faqat bir xalq tomonidan ishlatmaydi va aynan bir muqim ma'nomi anglatolmaydi ¹⁸⁴

Muhokamalar ichidan shu holatga muvofiq bo'lgan kichik jihatni aytish mumkin. Akdeniz gidronimi o'zbek tiliga tarjima qilinganda O'rta yer dengizi deb ataladi. Bundan ham ko'rish mumkinki aynan ak so'zi faqatgina oq deb tarjima qilinmaydi ,shuningdek, leksik jihatdan markaz , o'rta ma'nosini beradi.

Menderes gidronimi. Misollar: Büyük Menderes, Küçük Menderes daryolari;

Menderes daryo nomi bo'lib, suv bilan bog'liq bo'lgan tomoni ham bor. Masalan, daryolarning tekis emas qiyshiq, burama holatda oqishiga aytiladi.

¹⁸² https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qora_dengiz

¹⁸³ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qora_dengiz

¹⁸⁴ Şahin. İ."Akarsu Adlarındaki Renk İsimleri Terminolojik midir?" Yıl 2017, Cilt: 17 Sayı: 2, 297 – 305. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/egetdid/issue/32850/346318304-b>.

Çay gidronimi. Misollar: Bakırçay, Köprüçay kabilar. Çay yani soy, daryoga o'xshash ma'nolarni beradi.¹⁸⁵

Acıgöl, açıçay gidronimi. Acı (achchiq) ma'nosirni beradi va daryo, soy, ko'l suvlarining sho'r, ichib bo'masligini anglatadi.¹⁸⁶

Tarixiy nomlar bilan ataluvchi gidronimlar. Misollar: Fırat, Dicle kabi daryolar. Bu daryolar haqida ma'lumot yetarlidir. Bu nomlar milloddan avvalgi davrlarda Mesopotamiyada mayjud bo'lgan daryo nomlari. Bu gidronimlar hali ham saqlanib qolgan va Turkiya hududidagi daryolarni nomlashda foydalaniladi

Joylashgan joy nomi bila atalaувчи gidronimlar. Misollar: Manavgat, Beyşehir, Burdur kabi daryo va ko'llar. Bu gidronimlar ular joylashgan shahar nomi bilan atalagandir. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, toponimlarning kelib chiqishi ba'zida ularning geografik joylashuvga qarab nomlanganini, ma'no bergenini bilish mumkindir.

Turkiya hududidagi suv havzalarining nomlari:

Dengizlar: Akdeniz, Egey deniz, Marmara deniz, Kara dengiz; ;

Daryolar: Çoruh, Yeşilirmak, Sakarya, Kızılırmak, Bartın, Susurluk, Meriç, Bakırçay, Gediz, Büyük Menderes, Küçük Menderes, Dalaman, Köprüçay, Manavgat, Seyhan, Ceyhan, Asi, Göksu, Fırat, Dicle;

Ko'llar: Yefrat, Manyas, Ulubat, Sapanja, Iznik, Beyşehir, Eg'irdir, Burdur, Acıgo'l, Tuz, Akşehir, Eber, Ilgin, Seyfe, Hazar, Aktash, Kilimli Göl, Aynalı Göl, Sat Gölü, Salda, Suğla, Kestel, Elmalı, Karagöl, Avlan, Söğüt, Kızören Timraş, Meke Tuzlası (maar gölü) kabilar;¹⁸⁷

Yuqoridagi keltirilgan gidronimlar ichidan ba'zilari gidronim indikatorlari bilan,xususan ,deniz (Kara deniz,Maramara deniz), irmak (Yeşilirmak, Kızılırmak), göl (Acıgo'l, Kilimli Göl, Aynalı Göl), su(Göksu) kabilarni tahlil qilib ko'rdik. Shuningdek, boshqa so'zlar qo'shilishi bilan yasalgan gidronimlar Bakırçay, Büyük Menderes, Aktaş kabilarni aytish mumkindir.

Leksik tarafdan esa ba'zi gidronimlarga rang nomlari qo'shilishi bilan qo'shma gidronimlarni ko'rishimiz ham mumkin, xususan, Akdeniz, Kızılırmak, Aktaş kabilalar. Shunungdek, hajmni kattalikni bildirgan va yo'nalishni belgilovchi so'zlardan yasalgan gidronimlar Büyük Menderes, Küçük Menderes, shaharlar nomi bilan atalgan gidronimlar Manavgat, Beyşehir, Burdur va boshqa jihatdan tahlil qilingan gidronimlarni maqola davomida tahlil qildik.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тақдири филол. фанфар. буйича фала. докт. (PhD) диссер-Бухоро 2021.

2. Бегматов Э, Улуков Н. Узбек ономастикаси терминларининг изохли лугати. Наманган. 2006.

¹⁸⁵ Şahin. İ .Türkiye yeradibiliminde terim ve tür sınıflandırması sorunları. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/ejatd/issue/5149/70117>

¹⁸⁶ Gedikli. Y. "Türk coğrafyasındaki bazı su adları (hidronim)'nın köken ve anamları" <https://www.medyadetay.com/turk-coğrafyasındaki-bazı-su-adları-hidronimin-köken-ve-anamları-6>

¹⁸⁷ <https://bikifi.com/biki/turkiyedeki-su-kaynakları/>

3. Gedikli.Y. Türk coğrafyasındaki bazı su adları (hidronim)'nın köken ve anlamları.<https://www.medyadetay.com/turk-cografyasindaki-bazi-su-adlari-hidronimnin-koken-ve-anlamlari-6>

4.Şahin. İ.“Akarsu Adlarındaki Renk İsimleri Terminolojik midir?” Yıl 2017, Cilt: 17 Sayı: 2, 297 – 305.

<https://dergipark.org.tr/tr/pub/egetdid/issue/32850/346318>

5. Улуков Н. Узбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқики. - Тошкент: Фан. 2008.

6. Qorayev. S. Toponimika-joy nomlari haqidagi fan. Toshkent: Fan 1989.

7. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qora_dengiz

8. <https://bikifi.com/biki/turkiyedeki-su-kaynaklari/>

BUXORO TAZKIRACHILIK MUHITIDA SADRI ZIYO VA VOZEHNING TUTGAN O'RNI

Tulqinova Azizabonu

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Tazkirachilik silsilasi ming yillik davr an'anasi, Sharq adabiyoti shakl hamda mazmun mohiyatining o'zaro mushtarak jihatlarini, tarix va madaniyatini o'z ichiga olgandir. Adabiyot tarixida tazkira va tazkirachilik an'anasi uzoq tarixga ega. Shu o'rinda tazkiraning lug'aviy ma'nolariga e'tibor qaratsak, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasida tazkiraning lug'aviy ma'nosi - zikr etmoq, eslatib o'tmoq deb aytildi. Ushbu manbada tazkira atama jihatidan quyidagicha izohlanadi: "Tazkira – Yaqin va O'rta Sharqda adabiyotshunoslik asari. Shoirlarning hayoti ijodi haqida ma'lumot, asarlaridan parchalar keltirilgan antalogiya. Shoirlar haqidagi ma'lumotlar alohida kichik maqola – fikrlardan iborat bo'ladi. Unda shoirlarning ismi, taxallusi, qayerdanligi, ijodi, tabiatdagi xarakterli xususiyat, qay-darajada shuhrat topganligi, she'rlaridan bir yoki ikki bayt namuna, shoirga tazkira muallifning ijobiy yoki tanqidiy munosabati, shoir umrining oxiri (vafot etgan bo'lsa, dafn qilingan joyi) bayon etiladi", - deb ma'lumot beriladi.¹⁸⁸ Bundan tashqari tadqiqotchi adabiyotshunos olim B. Valixo'jayev tazkira va tazkirachilik an'anasi o'rganib, tazkira haqida shunday deydi: "Tazkira arabcha zikr so'zidan tuzilgan bo'lib, esdalik daftari ma'nosini anglatadi. Shu jihatdan olib qaralganda, tazkira ma'lum davrda bo'lib o'tgan yoki muallifning o'z boshidan kechirgan hodisa voqealarni hamda mazkur shaxslar hayoti haqidagi ma'lumotlarni qayd qiluvchi asardir".¹⁸⁹ Quyidagi har ikkala ta'riflardan ko'rinish turibdiki, tazkira siyosiy-adabiy hayat voqealarini tasvirlaydi va aniq dalillar asnosida fikrni ochib beradi.

¹⁸⁸ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

¹⁸⁹ B. Valixo'jayev. "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi". Toshkent, 1989-yil.

Dastlabki tazkiralar arab tilida IX – X asrda yaratilgan tazkiralar sifatida Abu Abdulloh ibn Sallom al-Jumahiyning “Taboqat ash-shuaro”sini, Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli asr” asarlarini aytishimiz mumkin.

XII asrdan boshlab O’rta Osiyo xalqlari adabiyotshunosligida ham tazkiralar maydonga kela boshladi. Shunday tazkiralardan Muhammad Avfiy Buxoriyning fors-tojik tilida yozgan “Lubob ul-albob”, Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, G’ulom Muhammad Dehlaviyning “Tazkurai Xushnavison”, Sadriddin Ayniyning “Namunayi adabiyoti tojik”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” va hokazolar.

Tazkiralar qaysi asrlarda yaratilishidan qat’i nazar o’sha davr madaniyatini, tarixini tazkiranavislar tafakkuri orqali aks ettiradi.

Buxoroyi sharif bir necha yuz yillar davomida ilm beshigi va ta’lim markazlaridan biri bo’lgan. Bu zamindan ko’plab yetuk shaxslar, shoir-u olimlar yetishib chiqqan, ma’rifat yo’lida ko’p ishlar qilingan. Azim shaharda og’ir siyosiy muhit yuzaga kelganida ham ijod qilishni to’xtatishmagan.

O’sha davrda o’nlab, yuzlab asarlar, tazkiralar yaratilgan. Tazkira yaratgan ijodkorlar: Qori Rahmatullo Vozehning “Tuhfat ul-ahbobi tazkirat ul-as’hab”, Abdullazim Shar’iyning “Tazkirat ush-shuaro”, Mirsiddiq Hashmatning “Tazkirat ush-shuaro”, Afzali Pirmastiyning “Afzal ut-tazkir fi zikr ush-shuaro val-ash’or”, Muhammad Sharif Sadr Ziyoning “Tazkori ash’or”, Hoji Ne’matulloh Muhtaramning “Tazkirat ush-shuaro”, Abdiy Mirabdullaxo’janing “Tazkurai Abdiy”, Abdumutallib Faxmiyning “Tazkurai Faxmiy” va boshqa ko’plab tazkiranavislarni sanab o’tishimiz mumkin.

Buxoro tazkirachilik muhitining rivojlanishida Sadri Ziyo va Vozehning o’rni beqiyosdir. Ular nafaqat adabiyot, balki boshqa sohalarga bag’ishlab yozgan asarlarini ham mavjud bo’lib, u sohalarning rivojiga ham turtki bo’lgan.

Sadri Ziyo 1867-yil 2-fevralda Buxoro amirligining Ziyouuddindagi qozisi Abdushukur Oyat oilasiga dunyoga kelgan. Uning asl ismi Mirzo Muhammad Sharif Sadr taxallusi esa Ziyo yozilgan.¹⁹⁰ Sadri Ziyoning ijodini o’rganar ekanmiz asarlarini guruhlarga bo’lishimiz lozimdir. Birinchi guruh tarixga oid ulardan ba’zilari: “Zikri Salotini mang’itiya”, “Zikri saltanat va podshohi mir Olimxon”, “Tarjimai holi Ostonaqul qushbegi”, “Sababi inqilobi Buxoro”, “Ro’znama”dir. Ikkinci guruhga kiradigan asarlar badiiy asarlar hisoblanib ko’pincha bu asarlarda badiiylikka e’tibor qaratilgan. Uning ko’zga ko’ringan asarları “Navodiri Ziyoia”, “Tazkirat ul-xattotit”, “Tarix va tazokir ash’or” tazkiralardan iborat. Tazkiranavisi adabiyot, tarix, geografiyaga oid asarlarini ham mavjud. Sadri Ziyo ijod bilan shug’ullanishdan tashqari davlat va jamoat arbobi, mudarris, qozi, rais, qozikalon, xattot va zullisonayn ijodkordir.

Sadri Ziyo bilan bir davrda Buxoro amirligida Vozeh ham ijod qilgan. Asli ismi Qori Rahmatullo Bin Ashur Muhammad 1818-yilda yashab ijod etgan.¹⁹¹

¹⁹⁰ Mallaev H. Karimov G’. Ismatov S. “O’zbekiston adabiyoti tarixi”, 1984-yil.

¹⁹¹ O’zME. Toshkent, birinchi jild. 2000-yil.

Сейтназарова Г.С Жақсимуратова Г.Ж Очеркда мазмун ва шакл унсурларини яхлид акс эттиришда публицист маҳорати.....	389
Sobitova R.S. G'oziy (XVIII asrning 2-yarmi — qo'qon — taxminan 1818).....	393
Мадрахимова Ж., Согукпинар Д.А. Спасение от отчаяния и стресса, скрытое в пыли веков: стоицизм — философское учение стойкости для современности.....	397
Sodiqova M.Sh. Inklyuziv ta'lif tizimida nuqsoni bor o'quvchilarga ingliz tilini o'qitish muammosi.....	400
Тайлакова Д.Н. Муаммоли таълим технологияларини она тили дарсларида ташкил этиш.....	404
Tashaliyeva S. Asqarbekova S.Sh. Turk tilida gidronimlarning morfologik va semantik xususiyatlari.....	407
Tulqinova A. Buxoro tazkirachilik muhitida sadri ziyo va vozehning tutgan o'rni.....	412
Turayeva SH.M., Shoyusmonova D.A. Til o'rganishning zamонавијија usullari va samaradorligi.....	416
To`rayeva Z.A. Gazeta tili va uslubining o`ziga xos jihatlari.....	419
To`raqulova M.B., Bahromova Z. Maktabgacha yoshdagи bolalar nutqini o'stirishning metodik masalalari.....	421
Tursunova M.X. Sociolinguistic features of bilingualism in the uzbek and english languages.....	424
Umarov X.X. Ko'hna shahr xarobasi-qala'yi zahhoki moron.....	426
O'mirzoqova G.U. Musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lif texnologiyalari.....	434
Usmonova S.A., Sotiboldiyev D.Q. Eshqobil shukur she'rlari misolida milliy va umummadaniy kompetensiyaga ta'rif.....	437
Usnaddinova D.P., Kurbonov A.G. Pragmatic competence in second language acquisition: challenges and strategies.....	443
Fayzullayev Z.Q. Asriy lirikasida she'riy san'atlarning qo'llanilishi masalasi.....	447
Fayzullayeva N. O'zbekiston ta'lif tizimida xorijiy tillarning o'rni.....	450
Xabibullaxonova D.Z. Turk va o'zbek tilida "Buyurmak" fe'lining ma'no xususiyatlari va qo'llanilishi.....	454
Xodjayeva S.R. Semantic features of fashion terms in uzbek and english texts.....	456
Худайкулова С. Инновационные подходы в логопедической и дефектологической практике в системе дошкольного и общего образования республики узбекистан.....	460
Xudoyberdiyeva M.A. O'smir yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishda kitobxonlikning o'rni.....	462
Xujayev M., Azizova Sh.U. Zaki validiy to'g'onning "Tarixda usul" asari doirasida tarixshunoslik metodologiyasiga qo'shgan hissasi.....	466